


## TASDIQLAYMAN

O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligi  
huzuridagi Jamoatchilik kengashi raisi



L. Muxammadnazarov

2024-yil 20-avgust

### O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligi huzuridagi Jamoatchilik kengashi yig'ilish BAYONI

Toshkent shahri

№ 4

2024-yil 20-avgust

Yig'ilishga raislik qildi:

Lutfulla Muxammadnazarov, *Kengash raisi*

Ishtirok etdilar:

Timur Butunbaev – **Suv xo'jaligi vazirining  
birinchi o'rinbosari,**

Shuhrat Suyunov- *Kengash raisi o'rinbosari*

Jamoatchilik kengashi a'zolari (ro'yxat bo'yicha).

#### KUN TARTIBI:

1. O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligi tizimida amalga oshirilayotgan ishlarni jamoatchilik muhokamasidan o'tkazish.
2. Jamoatchilik kengashining 2024-yil uchun ish rejasining ijrosini ta'minlash.

-----  
( Muxammadnazarov, Butunbayev, Ikramova, Suyunov, Muxammadnazarov)

Yig'ilishni Jamoatchilik kengashi raisi L. Muxammadnazarov kirish so'z bilan ochdi.

Sohada amalga oshirilgan ishlar haqida hisobot berish uchun Suv xo'jaligi vazirining birinchi o'rinbosari T. Butunbaevga so'z berildi.

Ta'kidlandiki, keyingi yillarda davlatimiz rahbari hurmatli Shavkat Miromonovich tashabbusi bilan suv xo'jaligi sohasida tub islohotlar amalga oshirilmoqda. Prezidentimiz joriy yilda suv xo'jaligi uchun **ikkita muhim hujjat** qabul qilib berdilar.

Birinchisi – 5-yanvar kuni “**Quyi bo‘g‘inda suv resurslarini boshqarish tizimini takomillashtirish hamda suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida**”gi PQ-5-son qaror bilan **155 ta tuman irrigatsiya bo‘limlari hamda 161 ta suv xo‘jaligi maxsus xizmatlari tugatilib**, ularning negizida **159 ta “Suv yetkazib berish xizmati”** davlat muassasalari tashkil qilindi.

Bu borada quyi bo‘g‘in xodimlarning **oyliklari ikki baravarga oshirildi**, har bir muassasaga zarur moddiy sharoitlar yaratib berildi, shu jumladan **150 mlrd so‘m mablag‘** hisobiga **102 ta ekskavator xarid qilindi**.

Sanab o‘tilgan omillar, shubhasiz, o‘z samarasini berib kelmoqda. Xususan, joriy yilning **7 oyi mobaynida dalalargacha yetkazib berilgan qariyb 14 mlrd kub metr** suv to‘g‘risidagi ma‘lumotlar **solliq organlariga taqdim etildi**. Taqqoslash uchun shu paytgacha bu ko‘rsatkich **8 mlrd kub metrdan** oshmagan.

Shu bilan birga, quyi bo‘g‘inga professional, yetuk **yosh kadrlarni jalb qilish** imkoni paydo bo‘ldi.

Ikkinchisi – 7-maydagi “**Suv xo‘jaligida zamonaviy boshqaruv tizimini joriy qilish va rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash to‘g‘risida**”gi PF-74-son Farmon bilan suv xo‘jaligi boshqaruvi **o‘rta va yuqori bo‘g‘inlarga ajratildi**, bu borada:

**o‘rta bo‘g‘in** – suv ob‘ektlarini ekspluatatsiya qilish, qurish hamda sohaga bozor mexanizmalirini olib kirishga;

**yuqori bo‘g‘in** esa – davlat suv siyosatini yuritish borasida regulyator funksiyalarini amalga oshirishga mas‘ul etib belgilandi.

Shu o‘rinda o‘rta va yuqori bo‘g‘in xodimlarining ham **oyligi bosqichma-bosqich 60 foizgacha oshirilishi** belgilandi.

Joriy yilning **sug‘orish davri uchun 22 mlrd kub metr** suv miqdori deputalar tomonidan iste‘mollchilar kesimida tasdiqlangan bo‘lib, suv xo‘jaligi vazirligining hududiy boshqarmalari tomonidan bugungi kunga qadar **16 mlrd kub metri** o‘z vaqtida yetkazib berilishi nafaqat oziq-ovqat xavfsizligi, balki, albatta, **ekologik xavfsizlikni ta‘minlashga ham qaratilgan tadbirlar hisoblanadi**.

Hisobot davrida jami **4,4 mlrd kub metr** suv resurslarini iqtisod qilindi shundan, **1,4 mlrd kub metr** qismi **296 ming gektar** suvni tejaydigan texnologiyalarni joriy qilish, **1,5 mlrd kub metri** suv kam talab qiladigan ekinlar ulushini ko‘paytirish hamda qo‘shimcha agrotexnik tadbirlarni amalga oshirish, **1,5 mlrd kub metri** esa sug‘orish tarmoqlarini ta‘mirlash va boshqa tadbirlarni amalga oshirish hisobiga.

Mazkur tadbirlar suv ob‘ektlarining tabiiy holatini va **ekologik muvozanatni saqlashga yordam bermoqda**.

Irrigatsiya-melioratsiya ob‘ektlarini qurish va rekonstruksiya qilish bo‘yicha jami **912 mlrd so‘m** mablag‘larni o‘zlashtirilishi hisobiga irrigatsiya yo‘nalishida **496 km kanal, 32 km lotok tarmoqlari, 14 dona gidrotexnikinshoot, 28 ta sug‘orish**

qudug'i, **2 km** bosimli quvurlar qurish va rekonstruksiya qilish hamda **5 km** qirg'oq himoya ishlari, melioratsiya yo'nalishida **195,3 km** ochiq kollektor tarmoqlari, **67,6 km** yopiq-yotiq drenaj tarmoqlari, **21 dona** gidrotexnik inshoot, **58 dona** tik drenaj qudug'i, **345 dona** kuzatuv quduqlarini qurish va rekonstruksiya qilish ishlari bajarilishiga erishildi.

**11 446 ta** (62%) suv xo'jaligi ob'ektida "Aqlli suv", **6 953 ta** (111,2%) "Dayver", **1709 ta** (101%) nasos "onlayn" nazorat qilish qurilmasi o'rnatilib, **67 ta** (111%) yirik suv xo'jaligi ob'ektlari avtomatlashtirildi. Davlat-xususiy sheriklik tamoyili asosida **500 ta** suv xo'jaligi ob'ektlarini (**268 ta nasos stansiya va 232 ta tik quduq**) boshqaruvga oladigan xususiy sheriklar aniqlanilib, loyihaga tegishli xulosa olish uchun Iqtisodiyot va moliya vazirligiga taqdim qilingan.

Suv xo'jaligi sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar mamlakatimizda barqarorlikni va jamiyatimiz ahlini yashash sharoitlarini yaxshilashga xizmat qiladi. **Davlat-xususiy sheriklik** asosida suv xo'jaligi ob'ektlarini boshqarish va modernizatsiya qilish masalalari mamlakatning iqtisodiy rivojlanishi va ijtimoiy farovonligini oshirishga qaratilgan strategik qarorlarning bir qismi bajarish hisoblanadi.

Xorijiy investitsiyalar hisobidan amalga oshirilayotgan **8 ta** loyiha doirasida **170 mln AQSh dollari** miqdoridagi xorijiy kredit va grant mablag'lari (*rejaga nisbatan 100%*) o'zlashtirildi. Ushbu mablag'lar hisobiga **184,1 km** uzunlikdagi kanallar rekonstruksiya qilindi, shundan **154,1 km** kanallar betonlashtirildi, **211 dona** gidrotexnik inshoot rekonstruksiya qilindi, **60 ta** nasos stansiyasi modernizatsiya qilindi, **139 ta** nasos agregati yangisiga almashtirildi.

Joriy yilda nasos stansiyalar va tik quduqlarni ishlatishga ajratilgan qariyb **4 mlrd kVt/soat** ajratilgan limitga nisbatan **180 mln kVt/soat elektr energiyasi** tejalishga erishildi.

Yig'ilishda vazirlik tizimida joriy yilning o'tgan davrida amalga oshirilgan ishlar kengash a'zolari tomonidan muhokama qilindi.

**2024-yil 8-avgust kuni Jamoatchilik kengashi raisi tomonidan Suv xo'jaligi vaziriga 57/1-28-sonli xat kiritilgan. Unda vazirlik faoliyatini takomillashtirish bo'yicha 17 ta taklif bildirilgan.**

Yig'ilishda ushbu takliflar bandma-band muhokama qilindi.

Kun tartibidagi ikkinchi masala bo'yicha kengash raisi L.Muxammadnazarov ma'ruz qildi. Kengashning 2024-yil uchun mo'ljallangan Ish rejasidagi tadbirlar to'liq bajarilmayotganligini tanqid qildi. Misol uchun, mart oyida Qishloq xo'jaligi vazirligi huzuridagi Jamoatchilik kengashi faoliyatini o'rganish, tajriba almashish rejaga kiritilgan edi. Yoki iyun oyida vazirlik faoliyati bo'yicha fuqarolar o'rtasida

o'tkaziladigan tushuntirish ishlari va ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarda ishtirok etish, ularning samaradorligini oshirish yuzasidan takliflar ishlab chiqish belgilangan.

Ish rejasidagi bu tadbirlar o'z muddatida bajarilmasdan, keyinga qoldirilgani tanqid qilindi. Rejadagi ishlarni o'z muddatida va to'liq bajarib, jamoatchilik kengashi raisiga belgilangan tartibda axborot berish zarurligi aytib o'tildi.

Muhokamalar natijasidan kelib chiqib,

**Qaror qilindi:**

1. Jamoatchilik kengashi raisi o'rinbosari (Sh.Suyunov): 57/1-28-sonli xat bilan kiritilgan takliflar bo'yicha vazirlik markaziy apparatining tegishli boshqarma va bo'limlari bilan birgalikda vazirlik faoliyatini takomillashtirish bo'yicha "yo'l xaritasi"ni ishlab chiqib, tasdiqlashga kiritsin.
2. Jamoatchilik kengashi a'zolari: 2024-yil uchun mo'ljallangan ish rejasidagi tadbirlar o'z muddatida va sifatli bajarilishi ta'minlanishini nazoratga olsinlar.
3. Bajarilgan ishlar haqida Jamoatchilik kengashi raisiga axborot kiritib borilsin.
4. Mazkur yig'ilish qarorining ijrosini nazorat qilishni o'z zimmamda qoldiraman.

*Yig'ilish bayonnomasini*

*rasmiylashtirdi:*

**Kengash kotibi**



**B.Jalilov**